



## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA HINDISTONGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

**Durdona Mashrabaliyeva**

*NamDU, Tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola biyuk vatandoshimiz, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati, ilmiy me'rosi qisqacha yoritilgan va uning mashhur “Boburnoma” asari, undagi Hindiston haqida ayrim ma'lumotlar.*

**Kalit so'zlar:** *Temuriylar, shayboniylar, Umarshayx Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur, Andijon, “Boburnoma”, Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, tarixiy-siyosiy voqealar, toponimik va etnografik ma'lumotlar,*

O'tmish bu – xalqlarning o'zligini anglatuvchi, uning keyingi kelajagiga tamal toshini qo'yuvchi, to'g'ri xulosa beruvchi jarayondir. Har bir shaxs o'z o'tmishini bilishi, undan tarbiya olishi va faxrlanishi lozim. Bu esa vatanparvarlik hissini uyg'otadi. Vatanga muhabbat hissiga ega bo'lgan shaxs hech qachon vatanni sotmaydi, birovga qaram bo'lmaydi. O'tmish insonning faqatgina aqliga emas, uning hissiyotlariga ham ta'sir etadigon ilmdir. O'tmishda bo'lgan ayrim hodisalar, o'yantirmasdan qo'ymaydi, nega bunday bo'lgan, nima sabab degan savollarni tug'diradi. Ikkinchi uyg'onish davri bo'lmish taraqqiyotga asos solgan, butun Sharqda yagona kuchli davlat bo'lgan Temuriylar, o'sha davr uchun taraqqiyotning cho'qqisiga erishgan, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlagan bu davlat nima uchun qisqa muddatda tarix sahnasidan ketdi va o'z o'rnini shayboniylarga (1599 – 1601) bo'shatib berdi.

Ma'lumki, sohibqiron Amir Temurning vafotidan so'ng (1405) uning vorislari toj-u taxt talashib, ulkan davlatni parchalab yubordilar. Lekin bu sulolaning oxirgi vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga borib Temuriylar davlatini davom ettirdi desak ham bo'ladi. U bir necha bor Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun kurashdi, ammo u temuriy shahzodalarni Muhammad Shayboniyxonga (1451 – 1510) qarshi ittifoqqa birlashtira olmadi. Natijada, Kobul va Hindistonni egallab yangi davlatga asos soldi.

Davlat arbobi, shoh, shoir, tarixchi, XV asr oxiri – XVI asr siyosiy maydoniga chiqqan Bobur Mirzo hayoti va faoliyati, ilmiy merosini o'rganish buyuk bir sharafdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur (“Zahiriddin” so'zining ma'nosi “sergul daraxt, “Bobur” arabcha “sher demakdir”) 1483-yil 14-fevralda Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, yosh shahzodaning ismini o'sha davr Movaunnahrning atoqli ulamolaridan bo'lgan Xo'ja Ahror Valiy tanlagan [1. – B. 441.]. Uning otasi Umarshayx Mirzo (1455 – 1494) 1494-yil 9-iyunda Axxi qo'rg'onda jordan kabutarxonasi bilan qulab, halok bo'ladi. Boburning shajarasi quyidagicha: Umarshayx Mirzo – Abdusaid Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Mironshoh – Amir Temur. Demak, Umarshayx Mirzo Amir Temurga to'rtinchi avlod – evvara edi.



Boburning onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi Toshkent hokimi Yunusxon o'zbeklashgan mo'g'ul urug'idan bo'lib, 12 avlod bilan Chingizxonga tutashgan. Bobur uni: "Chingizxonning ikkinch o'g'li Chig'atoyxon naslidandir", – deb aytgan.

Otasi vafotidan so'ng (1494-yil) Andijon taxtiga Bobur Mirzo o'tiradi. 12 yoshli Bobur Mirzo Shayx Mazidbek, Boboqul Boboalibek, Qosim Qavchi kabi beklar yordamida hokimiyatni boshqaradi U taxt uchun tinimsiz kurashib, 1497-, 1500-, 1501-yillarda Samarqandni, 1502 – 1503-yillarda O'sh va uning atroflarini egallab oladi, Ahmad Tanbaldan yengiladi. 1503-yilda Bobur Kobul va G'aznani jangsiz qo'lga kiritadi.

Bobur dastlab Afg'onistonda o'rnashadi va 1519-yilda Hindistonga yo'l olib, 1526-yil aprelda uning shimoliy qismini egallashga muvaffaq bo'lgan. Bobur Hindistonda yirik davlat tuzishga erishadi va poytaxt sifatida Jamna (Yamuna) daryosi bo'yidagi Agra shahrini tanlagan. U tarixda Boburiylar imperiyasi nomi bilan mashhur bo'lgan sulolaga asos soladi, Yevropada esa Buyuk mog'ullar nomi bilan mashhur bo'ladi [2. – B. 298.].

Taniqli shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yil 26-dekabrda vafot etgan. Dastlab Agra shahridagi muvaqqat maqbaraga dafn etilgan, keyinchalik xoki Afg'oniston poytaxti Kobulga ko'chirilgan va hozirda shoirning maqbarasi Kobuldagi Bog'i Boburda joylashgan.

Bobur Mirzo yoshligidanoq turli sayohatlarni yaxshi ko'rgan. Bunday safarlarda chiniquan ham. Yosh bo'lishiga qaramay, o'lkamizning geografik qiyofasini tasavvur qila olgan. Olim 15-16 yasharligida Farg'ona, Samarqand va Toshkent oralig'ini bir necha marta kezib chiqqan. 19 yoshga to'lgan yili Hisor tarafidan toqqa ko'tarilib, Fondaryo va Iskandarko'l orqali Zarafshon vodiysiga o'tib, Samarqandga kelgan. Boburning yozishicha, 21 yoshigacha Farg'onadan Buxorogacha, Toshkentdan Hisor va Hirotgacha bo'lgan barcha shahar va qishloqlarda hamda dashtu tog'larda bo'lgan. Farg'ona vodiysida u borgan eng sharqiy joy – O'zgan shahridir. O'zbekistonning g'arbi, Buxoro va Qarshi ham Boburga yaxshi tanish edi. Shuningdek, Eron bilan Afg'oniston chegarasida, o'sha davrning eng yirik poytaxtlaridan bo'lgan Hirotda bir qancha vaqt yashagan. Shu tariqa umrining deyarli 36 yilini safarlarda o'tkazgan va o'n minglab kilometr yo'l bosgan.

Bobur Mirzo 20 yoshida "Xatti Boburiy" yozuvini yaratgan, "Boburnoma", "Mubayyin al-zakat" asarlari va uning she'riy merosi jamlanib ikki devon holiga keltirilgan. Ularning biri 1519-yilda Kobulda yozilgan, ikkinchisi 1528 – 1529-yillarda Hindistonda yozilgan devonidir.

"Boburnoma" – jahon adabiyoti va manbashunoslik va tarixshunoslikdagi muhim va noyob yodgorlik va o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan. "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa "Vaqoye" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan.





“Boburnoma”da 1494 – 1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'likdir.

“Boburnoma” o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494 – 1504), Afg'oniston (1504 – 1524) va Hindiston (1524 – 1530)dagi hukmdorlik davriga bo'linadi [3. – B. 192.].

Bundan tashqari asar geografik va etnografik dalillarga juda boy. “Boburnoma” da Hindiston o'lkasi Bobur tomonidan ko'zi bilan ko'rganlarini va eshitganlarini asarda bayon etib qoldirgan. Jumladan u Hindiston geografik joylashuviga quydagicha ta'rif beradi: Hindiston sharqi va janubi, g'arbi Muhit daryosidir (Hind okeani) Shimoli Hindikush, Kofiriston va Kashmir tog'lari bilan payvastadir va shimoli-g'arbi Kobul, G'azni va Qandarhor viloyatlaridir. Jami Hindiston viloyatining poytaxti Dehlidir, Sulton Shahobiddin G'uriydan so'ng Sulton Feruzshohning oxir adog'igacha Dehli poytaxti ekanligini Bobur asarida bayon etib ketgan. Shuningdek, Bobur Mirzo Hindistoni fath etganida u yerda besh musulmon podshoh va ikki kofir Hindistonni idora etar edilar. Biri Dehlida edi unda Sulton Alovuddin (Dehli sultoni lo'diyar sulolasiga mansub 1451 – 1526) qo'lida edi, ikkinchisi, Gujarat viloyati edi, unga Sulton Muzaffar hokim edi, u ham Sulton Feruzshoh avlodidan edi, uchinchi viloyati Dakanda viloyatidir, unda Bahmaniylar hukmron edi, to'tinchi viloyat Malva (Mandav) unda xiljiylardan Sulton Mahmud edi, bu viloyat ancha kuchsizlanib qolgan edi, beshinchi viloyat Bangala viloyatidir, unda Nusratshoh hokim edi, u lo'diyarlarning qarindoshidir, oltinchi va yettinchi viloyatlar kofirlardan edi, kuchliroq viloyat va cheriki (askarlari) bilan Bijagnagar Ro'jasidir va oxirgisi Chito'r edi, unda Raana Sangaadur hokim edi [4. – B. 297.]. Bundan kelib chiqadiki o'sha paytda Hindistonda yetti viloyat bo'lgani va ikkitasi mahalliy hind rojalari boshqaruvida bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, Bobur Mirzo Hindiston o'lkasi bizning o'lkalardan umuman boshqachaligi, suvi va hayvonati ham o'zgachaligini yozadi. Hindistondagi ba'zi daryolarning manbasi to'g'lardir va mamlakatning aksari yerlari tuz yerlardir. Ko'p shaharlar va viloyatlarda oqar suv yo'qdir, oqar suvi daryolardir, ba'zi yerlarda qora suvlardir. Ba'zi viloyatlarda oqava suvga eh'tiyoj kamroq, ularning hosili yomg'irda pishadi, darxtlarning niholiga bir-ikki yil suv tashiladi, keyin suv aslo tashilmaydi [4. – B. 299.]. “Hindiston hayvonlaridan fillar mashhurdir, ularni “haatiy” deyiladi, Kalpiy viloyatining sarhadlarida bo'lar. Sharqqa borgan sari sahroyi fillar ko'payadi” deydi muallif, “..u yerlardan fil tutib keltiradilar Kurara va Manikpurdin 30-40 mavzalarini ishi fil tutmoqdir. Filning yemog'i ham, ichmog'i ham xartumidadir. Filning ahamiyati bu mamlakatda juda qadrlil va cheriklar harbiy maqsadda foydalanishadi, bahosi juda qimmat”. “Yana bir jonivor bor” deydi Bobur Mirzo, “..bu jonivor Karkdir (karkidon) u kuchda filga teng keladi, ko'pincha g'olib bo'ladi. Uning burnining ustida shoxi bor. Ular Hindistonning Parshovar va Xashnag'ar changalzorlarida bo'ladi. Ular yana Hindistonning Saru daryosi yoqalarida ham bo'ladi. Yana Hindistonning tog'larida kichikroq kiyik va qo'chqor bo'lur deydi, ularning go'shti



yumshoq va bisyor bo'ladi. Hayvonlardan maymun bor, uning bir turi borki lo'lilar o'yin o'rgatarlar. Ularning tuki sariq, yuzlari oqdir" [4. – B. 301,302.]. Bundan tashqari Hindistonda zaharli katta-kichik ilonlar, jayronlar, tulkilar, har xil qushlar (eng noyobi tuyur (tovus) bo'lib u juda chiroyli bo'ladi) va parrandalar, millionlab hashoratlar borligini yozadi.

Bobur Mirzo Hindistonni bosib olgandan so'ng quydagicha asarida bayon qiladi: "Doim xotiraga yetar edimki, Hindistonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qdir, har yerida o'lturushlik bo'lsa, charxlar yasab, oqar suvlar qilib, tahirliq va syoq yerlar yasasa bo'lur. Oraga kelgandin bir necha kun o'tib, bog' yerlarini mulohaza qildik.. (bu yerda bog' bunyod etishadi Agra shahri) Andoq besafo va xarob yerlar edikim, yuz qarohat va nohushluq bila andin ubur ettuk". Bobur mirzo Hindiston ob-u havosi issiq va chang to'zonliligi va oqava suvning yo'qligi uchun Bobur hordiq chiqarish uchun o'ziga bog' bunyod ettiradi va charxpalakdan suv chiqaradi (Bobur mirzo Jehlam daryosi yaqinida bog'larda birinchi marta charxpalakni ko'radi) [5. – B. 10.]. Bundan bilishimiz mumkinki hindlar sug'orish uchun charxpalakdan foydalangan, ko'p yerlar lalmikor bo'lib asosan yomg'irda pishgan.

Shuningdek, "Boburnoma" Bobur Mirzoning Hindistondagi avlodlari uchun davlat boshqaruvida dasturamal bo'lib xizmat qiladi. Bu asar ingliz mustamlakachilarning diqqatini o'ziga jalb etgach 1809 – 1816-yillarda ingliz sharqshunoslari Jon Leyden va Uiliyam Erskinlar "Boburnoma"ni ingliz tiliga o'girishgan [6. – B. 83.]. "Boburnoma" boshqa asarlardan farqi shundaki, u bo'rtirishlardan, maqtovlardan holi bo'lib Bobur Mirzo o'z ko'zi bilan ko'rgan kechmishlarini haqqoniy, holisona bayon etgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek muntoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.
2. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001.
3. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
4. Захириддин Муҳаммал Бобур. Бобурнома . – Т.: Шарқ, 2016.
5. Ибраҳимов А. Бобурийлар мероси. – Т.: Меҳнат, 1993.
6. Сатимов Ф. Бобурийлар салтанатида давлат бошқаруви. – Т.: Ўзбекистон, 2018.